Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# O'ZBEKISTON TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

**Qilichev Umid Ibadullayevich**

Toshkent davlat transport universiteti izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada transport tizimini samaradorligini belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlar, transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o'zaro bog'liqligi hamda transport turini tanlashda ta'sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi keltirilgan, temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarining qiymatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** transport tizimi, temir yo'l transporti, transport-logistika, tranzit tashuvalar, yuklarni yetkazib berish, vazifalar irarxiyasi, transport kompleksi, transport infratuzilmasi.

**Abstract:** This article describes the main directions that determine the efficiency of the transport system, the relationship between the concepts of transport complex, transport system and transport infrastructure and the main factors influencing the choice of mode of transport. suggestions for improvement are given.

**Key words:** transport system, railway transport, transport-logistics, transit transportation, cargo delivery, hierarchy of tasks, transport complex, transport infrastructure.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены основные направления, определяющие эффективность транспортной системы, взаимозависимость понятий транспортного комплекса, транспортной системы и транспортной инфраструктуры, а также основные факторы, влияющие на выбор вида транспорта, оценка представлены различные виды транспорта, показаны значения основных показателей развития системы железнодорожного транспорта.

**Ключевые слова:** транспортная система, железнодорожный транспорт, транспортно-логистика, транзитные перевозки, доставка грузов, иерархия задач, транспортный комплекс, транспортная инфраструктура.

## KIRISH

Jahonda yuz berayotgan global mashhuv hamda integratsiya jarayonlarida transport kompleksining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, jahon transport xizmatlarining YALM tarkibidagi miqdori 4,3 trln. AQSh dollari (6,9%)ni tashkil etib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo'lovchilar tashilmoqda, transport kompleksida band bo'lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etmoqda<sup>[1]</sup>. Mazkur sohalarni rivojlantirish jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshiriladi. Transport tizimida yetkazib berishning zamонавиу texnologiyalaridan foydalanish moddiy zaxiralar hajmini 30% dan 60% gacha tejash, shuningdek, transport xizmatlaridan foydalanuvchi korxonalarining yetkazib berish xarajatlarini taxminan 30-35 foizga kamaytirishiga erishish imkonini beradi.

Jahonda transport tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, transport faoliyatini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, transport tizimini samarali rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda transport tarmog'i rivojlanishining ijobiy ta'sirlari qayd etilgan, shunga qaramay, ushbu ta'sirlarning yo'nalishi va ko'lami bo'yicha kompleks fikr shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, transport tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha izlanishlar olib borish lozimligini belgilaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transport tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari bir qator mahhalliy va xorijlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ingliz iqtisodchisi Entoni Venablesning fikriga ko'ra transport kompleksi bu ijtimoiy ishlab chiqarishning yuklar va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga ixtisoslashgan xalq xo'jiliqi tarmoqlari yig'indisi tushuniladi<sup>[4]</sup>.



D. Bauersoksnинг fikricha, an'anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga mualif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalari o'z ichiga olgan transport tizimini alohida qayd etadi [5].

Mamlakatimiz olimlaridan G'.Samadov, A.Zoxidov, A.Gulamov va M.Ravshanovlarning fikricha "transport tizimi – bu yuk va yo'lovchilarni o'z manziliga yetkazish jarayonida o'zaro aloqasi bo'lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya'ni o'zaro bog'liq bo'lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali bosharish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushiniladi" [6].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Transport tizimini rivojlantirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadkikotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon davlatlari iqtisodiyotining samarali rivojlanishida asosiy "qon aylanish" vazifasini bajaruvchi transport kompleksi alohida ahamiyat kasb etadi. Samarali transport tizimi ichki bozorda xosh-ashyo va mahsulot harakatlarini optimallashtiradi, shu bilan bir qatorda tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mamlakatni keng ko'lamma rivojlantirish mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarning yuqori sur'atlarda bo'lishi keng ma'noda transport infratuzilmasining samarali faoliyatiga ham bevosita bog'liq.

Shuni alohida ta'kidish lozim, transport-tranzit hamda transport-logistika salohiyatini oshirish geografik nuqtayi nazardan optimal joylashmagan, shu bilan birga to'g'ridan to'g'ri dengiz portlariga xatto qo'shni davlatlar orqali chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan davlatlar uchun tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda mazkur sohalarning samaradorligini oshirish yuzasidan xalqaro amaliyot va nazariyada turlicha yondashuvlarning mavjudligi dastlab ularni to'g'ri talqin qilish hamda nazariy asoslarini aniqroq yoritib berish lozimligini belgilaydi. Shu o'rinda nazariyaning lug'aviy ma'nosiga to'xtab o'tish maqsadga muvofiq, nazariya qaysidir bilimlar sohasiga taaluqli bo'lgan asosiy g'oyalar majmui hisoblanib, jamiyat va tabiyatdagi barcha hodisa va jarayonlarning yuz berishi hamda shakllanishida qandaydir bog'liqlik va qonuniylikning mavjudligi haqida tasavvur beradi.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakat transport tizimi haqida fikr yuritganda, dastlab "transport kompleksi", "transport tizimi", "transport infratuzilmasi" tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda "tranzit" va "transport-logistika tizimi" kabi tushunchalarining mazmun mohiyatlarining o'zaro farqlarini aniqlab olishni taqozo etadi.

Xorij olimlarining tadqiqotlarida "transport kompleksi" atamasiga turlicha ta'riflar keltirilgan bo'lib, ularning yondashuvlarida umumiy o'xhash tomonlari uchraydi. Masalan, amerikaliq mutaxassis Stiven Frederik Starr transport kompleksi kategoriyasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Transport kompleksi - yo'lovchilar va yuklarni tashishga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyot tarmoqlari yig'indisi" [7].

Rossiyalik olim N.P. Tereshina o'zining "Transport iqtisodiyoti" o'quv qo'llanmasida "transport kompleksi bu o'zaro bog'liq transport turlarining hududiy uyg'unligi bo'lib, ular, bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda ijtimoiy xo'jalik va aholining yuklar va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondiradigan sektorlar majmui" [8] degan ta'rif keltirilgan.

Mahalliy va xorijlik olimlarning yondashulariga asoslanib, fikrimizcha, mamlakat transport kompleksi – hamkorlikda harakat qiladigan, bir-birini to'ldirib keladigan, har biridan samarali foydalanishni ta'minlagan holda bir-biriga bog'liq tarzda taraqqiy etadigan turli transport turlari majmui tushuniladi.


Transport kompleksi obyektlari qotoriga transport, transport sanoati (transport mashinasozligi, transport qurilishi, tashish jarayonining moddiy-texnik ta'minoti), transport uchun kadrlarni tayyorlash muassasalarini va tashkilotlari, loyliga hamda ilmiy-tadqiqot ishlарini o'tkazish bo'yicha muassasalar, ta'mirlash korxonalari kiradi.

Transport kompleksi tarkibiga kiruvchi transport tizimi – mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, bir biriga samarali ta'sir ko'rsatadigan va har xil yuk ortish-tushirish, qurilish ishlарining bajarilishini, shuningdek, trnasport xizmatlariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yuk va yo'lovchilar harakatini ta'minlaydigan transport turlari hamda vositalari to'plami tushniladi. Transport tizimi minimal xarajatlar evaziga transportga bo'lgan ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish maqsadida transportning barcha turlarini muvofiqlashtirish, uning samarali ishlashini ta'minlaydi.



Yuqorida tizimlashtirilgan ta'riflardan aytish mumkin, transport tiziminining tarkibiy qismi qatnov yo'llari, texnik inshootlar, yuk stansiyalari, yo'lovch vokzallari, chipta sotish markazlari, tashishni tashkil etish kompaniyalari, logistika markazlari, omborxonalar, muhandislik tarmoqlari, kommunikatsiyalar va boshqa elementlardan tashkil topadi.

Yuqoridagi yondashuvlarga asoslanib, "transport kompleksi" "transport tizimi" tuchunchasiga nisbatan kengroq tushuncha "transport tizimi" tushunchasi ba'zan "transport infratuzilmasi" kabi anglanadi, biroq ko'pincha ana shu "transport infratuzilmasi"ni ham o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, mazkur atamalarning o'zaro bog'liqligi quyidagicha izohlanadi (1-rasm.)



**1-rasm:** Transport majmuasi, transport tizimi va transport infratuzilmasi tushunlarining o'zaro bog'liqligi

Manba: Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini nafaqat miqdoriy o'sish, balki iqtisodiyotdagি sifat o'zgarishlari, ya'ni ilmiy-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalarning tarqalishiga ta'sirini ham ko'rib maqsadga muvofiq. Transport tizimini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir qilishning aniq natijalari orqali ochib beriladi (1-jadval).

**1-jadval:** Transport tizimining mamlakat iqtisodiy rivojlanishga ta'siri natijalari<sup>1</sup>

No	Ta'sir ko'rsatishning turi	Ta'sirning natijalari
1	Bevosita	mahsulot ishlab chiqarishi tannarxining pasayishi / oshishi; mahalliy korxonalar samaradorligini pasayishi / oshishi; aholining harakatlanish, rekreatsion imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalarining o'sishi / cheklanishi; hududlararo o'zaro aloqalarni kengaytirish / cheklash.
2	Bilvosita	mintaqaviy mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi; mintaqada hududlari rivojlanish darajalarini tekislash; investitsion muhitni yaxshilash; innovatsion faoliytni oshirish. turdosh tarmoqlarning intensiv rivojlanishini rag'batlantirish; boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ulardan foydalanish uchun bozor imkoniyatlarini oshirish; yalpi talabning shakllanishi.
3	Muddati	Uzoq muddatli takomillashtirish: biznes va aholining yuqori sifatli transport xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish; transport infratuzilmasi mavjudligidan soliq tushumlarini oshirish; aholini ish joylariga yetkazib berish; ish o'rinlarini yaratish; aholini mahsulot bilan ta'minlash (etkazib berish). Qisqa muddatli ta'sir: xarajatlar pasayishi samaralari yoki, aksincha, sarflar oshishi; aholining yilning ma'lum bir vaqtida turli maqsadlarda ko'chib o'tishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.
4	Ta'sir ko'rsatish vositasiga ko'ra	Endogen ta'sir: korxonalar va aholi uchun transport bog'lanishni yaxshilash; mintaqaning va doimiy yashash joyi sifatida investitsiya jozibadorligini oshirish. Ekzogen ta'sir: mintaqaning mintaqalararo va tashqi iqtisodiy aloqalarga qo'shilishi.
5	Ta'sir ko'rsatish darajasiga qarab	Mahalliy daraja-ichki tashishlarning rivojlanishi, mahalliy bozorlarning kengayishi, biznes uchun imkoniyatlarning oshishi, aholining harakatchanligini oshirish. Mintaqaviy daraja-biznesni kengaytirish, aglomeratsiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini oshirish; aholining harakatchanligi va korxonalarini kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash. Milliy daraja-milliy xavfsizlikni, mamlakat hududiy yaxlitligini ta'minlash, biznesni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish, aholi va kapitalning harakatchanligi.

<sup>1</sup> O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Transport-logistika tizimi – xizmatlar iste'molchilarini va ularning ishlab chiqaruvchilari, shuningdek, transport vositalari, qatnov yo'llari, inshootlar va boshqa mol-mulk; ular orasidagi moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari bilan birga transport va logistika infratuzilmasi obyektlari hamda subyektlari majmui bo'lib, tovarlarni tashish, saqlash, taqsimlash, shuningdek tovar oqimlarini axborot va huquqiy kuzatish funksiyalarini bajaradi. Mamlakat transport tizimining yana bir muhim elementlaridan biri bu mintaqaning tranzit salohiyati hisoblanadi. Mintaqqa (yoki mamlakat) tranzit salohiyatini tadqiq etishda quyidagi baholash mezonlaridan foydalanish mumkin 2-jadval).

#### 2-jadval: Mamlakat tranzit salohiyatini baholash mezonlari<sup>2</sup>

No	Ko'rsatkichlar	O'Ichov birliklari
1.	Yevropa-Osiyo quruqlik orqali tashuvlarida mintaqqa orqali tashilgan yukning ulushi	%
2.	Mintaqa (mamlakat) hududidan o'tgan yillik tranzit tashuvi hajmi	mln tonna/yil
3.	Mintaqa hududi orqali tashilayotgan yillik tranzit hajmining o'sish tendensiyasi	%
4.	Tranzit ahamiyatidagi koridorlarning yuk o'tkazish qobiliyati	tonna / yil
5.	Tranzit ahamiyatiga ega koridorlar zichligi	km / 1000 kv.km
6.	Tranzit davlat yoki tranzit xizmatidan foydalanuvchi davlatlar o'rtaida tranzit tashuvlari to'g'risidagi huquqiy bazaning shakllanganligi	mavjud / mavjud emas
8.	Mintaqaviy tranzit tashuvlari jarayonini tartibga soluvchi institutsional asosning mavjudligi	rivojlantiruvchi tashkilotlarning mavjudligi
9.	Mintaqada tranzit sohasini rivojlantirishga qaratilgan siyosat	strategiya va dasturlarning mavjudligi
10.	Tranzitni rivojlantirishga qaratilgan amaldagi qo'shma loyihalarning mavjudligi	soni – ta, qiymati – mln doll.
11.	Tranzitni rivojlantirishga kiritilgan investitsiyaning jami transport tizimiga ajratilgan investitsiyadagi ulushi	%

Dengiz qirg'oqlari bilan tutashmagan davlatlarda dengizga chiqish uchun muqobil tranzit koridorlarini aniqlash va ularga ularish imkoniyati hamda transport xizmatlarining yangi istiqbolli bozorlariga ega bo'lish muammosi dolzarb hisoblanadi. Mamlakat transport salohiyatini baholashda asosiy omillardan biri sifatida tranzit salohiyati qaraladi. Tranzit salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda transport tizimiga investitsiyalar jalb etish va zamonaviy yetkazib berish provayderlaridan foydalanish transport sohasini yuqori darajada rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Mamlakatda so'nggi yillarda jami yo'lovchilar aylanmasida temir yo'l ulushi o'rtacha 1.5 foizdan 3.2 foizgacha tashkil etigan bo'lsa, yillar davomida umumiy yo'lovchi aylanmasida temir yo'l ulushining kamayishi kuzatilgan. Bu borada rivojlangan davlatlarning umumiy yo'lovchi aylanmasida temir yo'l transportining ulushi o'rtacha 30 foizdan 50 foizgachani tashkil etib, shu nuqtayi nazardan temir yo'l transportining bu boradagi faoliyatiga batafsil to'xtolib o'tish zarur. Yuqoridagi tahsil natijalariga ko'ra, temir yo'l transport tarmog'ining rivojlanishiga transport-tranzit, transport-logistika yo'nalishlari, eskirgan tarif tizimi, asosiy vositalarning yuqori darajada eskirganligi to'siq bo'layapti deb aytish mumkin. Temir yo'l transporti iqtisodiy faolitiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning me'yoriy va mamlakatimizdagи qiymatlari keltirildi (3-jadval). Bugungi kunda temir yo'l transporti 17 ta yo'nalish bilan bir qatorda quyidagi sohalarda ortda qolmoqda:

- yo'ldagi yuk vagonlarini kuzatish uchun avtomatik identifikatsiya qilish uskunasi – mavjud emas;
- transport xizmatlarining jahon tranzit bozorida xizmat ko'rsatishning xalqaro standartlariga muvofiqligi – mos kelmaydi;
- konteyner tashuvlari bozori – rivojlanish bosqichida;
- tashish bozoridagi talab va taklif – nomutanosibligi.

<sup>2</sup> Zohidov A.A. Markaziy Osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018. – 47.



3-jadval: O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari 3

No	Ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	Me'yor	O'zbekiston Respublikasida	Salmoqdurlik koefitsiyenti
1	Investitsion portfelda ITTKIning ulushi	%	>3	<0,8	0.3
2	Aloqa yo'llari tarmog'ini qamrab olish	km/ming km <sup>2</sup> hudud	30	7	0.25
3	Ishlab chiqarish fondlarining eskirish darajasi	%	<35	66	0.2
4	Ortiqcha o'tkazilgan tonnaj, Σkm ga nisbatan	%	1,5	15	0.15
5	Yo'lda nuqsonli relslar soni	%	<1	3	0.15
6	Nuqsonli strelka o'tkazgichlar soni	%	0,05	7,1	0.25
7	A'llo baholanuvchi km lar soni	%	>100	65	0.15
8	Yuk tashishdagi o'rtacha tezlik	km/soat	>90	35-40	0.15
9	Yuk poezdining maksimal tezligi	km/soat	120	60	0.15
10	Yo'lovchi poezdlarining maksimal tezligi	km/soat	250	200	0.1
11	Yuk va yo'lovchi tashishda narxlarning o'zgarish dinamikasi	%	<20	40	0,15
12	Temir yo'llar zichligi	km/1000km <sup>2</sup>	>15	7	0,25
13	Xalqaro ahamiyattdagi temir yo'llarning elektrlashtirilganlik darajasi	%	>80	45	0,2
14	Xalqaro tashuvlarda konteyner tashuvlarining ulushi	%	>20	12	0,25
15	Yuk va yo'lovchi tashish hajmining o'sish sur'atlari	%	>6	2	0,3
16	Asosiy eksport va import tovarlari tannarxida transport xarajatlarining ulushi	%	<10	36	0,2
17	Tranzitni rivojlantirishga kiritilgan investitsiyaning jami transport tizimiga ajratilgan investitsiyadagi ulushi	%	>33	5	0,25

Tashuvlarga bo'lgan talab va taklifning nomutanosibligidan iborat mavjud muammo ko'rsatkichlarni monitoring qilish tizimini ishlab chiqish zarurligini belgilaydi, ushu tizim esa talab va taklifni boshqarish samaradorligini baholash imkonini beradi. Bunday baholash uchun yuk tashish faoliyatining rivojlanish holati va dinamikasini tavsiflovchi har xil darajadagi indikator-ko'rsatkichlarga zarurat paydo bo'ladi. Quyidagi rasmda keltirilgan indikator-ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi (3-rasm).

Mazkur indikator-ko'rsatkichlar tizimi temir yo'l tarmog'inining hozirgi holati bilan uning me'yoriy holatini taqqoslash, temir yo'l transporti faoliyatining o'zgarish dinamikasini aniqlash, shu bilan bir qatorda, temir yo'l tarmog'ini indikator-ko'rsatkichlarni tizimlashtirish orqali temir yo'l transportini tahsil qilish, baholash va hozirgi holati yuzasidan nazorat qilish imkoniyatini beradi. Temir yo'l transport tizimi bilan bog'liq muammolarni aniqlashda indikator-ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ularning chegaraviy qiymatlarini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq 17 ta ko'rsatkichning me'yoriy qiymati va bizning sharoidagi qiymatlar o'rnatildi. Mazkur yondashuv temir yo'l transporti 11 ta yo'nalishdan ancha orqada qolayotganligini ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, temir yo'l transport tizimini rivojlantirish dasturlari asosan ortda qolayotgan yo'nalishlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Temir yo'l transport tizimini kompleks monitoring qilish metodikasi tizimga solinmaganligi kabi ilmiy muammo sifatida tadqiq etildi.

Sohadagi muammolarning qay darajada ekanligi ularning chegaraviy qiymatlarida namoyon bo'ladi. Mux-tasar qilganda, tashuv bozori subyektlarining o'zaro ta'sirini baholash va monitoring qilish tizimini ishlab chiqish bo'yicha tavsiya etilgan yondashuv iqtisodiyotni rivojlantirishdagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda yuqori ahamiyatga ega.

3 Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



<b>Yuk tashish sohasidagi bevosita ishtirokchilarning rivojanish holati va dinamikasini tavsiflovchi indikator-ko'rsatkichlar</b>	Temir yo'l transportining rivojanish ko'rsatkichlari Asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari Asosiy vositalarning holati ko'rsatkichlari (eskirish darajasi, yangilanish va chiqib ketish koeffitsiyentlari, fond qaytimi). Investitsiyalar hajmi va dinamikasi (shu jumladan innovatsion ulush) Texnik vositalar, harakatlanuvchi tarkib parkining hajmi Moliyaviy ko'rsatkichlar (daromadlilik, barqarorlik va boshqalar) Tariflar darajasi Transport xizmati ko'rsatish sifati darajasi Raqobatbardoshlik darajasi Temir yo'l transporti xizmatlari iste'molchilarining holati ko'rsatkichlari Daromad darajasi Iste'molchilarning xarid qobiliyatini baholash Transport xarajatlarining umumiyligi xarajatlardagi ulushi Transport xizmatlarining turlari, sifati, xizmat ko'rsatishga oid afzal ko'rishlar Iste'molchining qoniqish darajasi
---	---

3-rasm: Yuk tashish faoliyatining rivojanish holati va dinamikasini tavsiflovchi indikator-ko'rsatkichlar tizimi<sup>4</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, iqtisodiyotda yuk va boshqa moddiy oqimlar zaxiralari samarali tashkil etish transport tizimi samaradorligini oshirish va tashkiliy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan bevosita bog'liq. Bu yerda albatta, mazkur tizim faoliyatini samarali tashkil etish lozim, deb hisoblaymiz. Transport turlari o'rtaida kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda transport tizimini samarali rivojlantirish bo'yicha vazifalari ko'rsatib berildi. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi rivojanish indekslari bo'yicha mamlakat transport taromog'i reytingini dunyo miqyosida yuqori pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi. Temir yo'l transport tizimini samaradorligini oshirish bo'yicha berilgan uslubiyotlar va undan kelib chiquvchi xulosa hamda tavsiyalar transport tizimini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatdagi strategiyalarini ishlab chiqish hamda tizimni modernizatsiya qilish, biznes hamkorlari bilan muvofiqlashuv va integratsiyalashuv jarayoni bo'yicha ishlarni samarali olib borish, mijozlarga sifatlari xizmat ko'rsatish va logistik xizmatlar provayderlarining raqobatbardoshligini oshirish, shu bilan birgalikda transport tizimi samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, transport tizimi samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- tariflarni belgilash prinsiplarini o'zgartirish va bosqichma-bosqich yangi tarif tizimiga o'tish, tuzatish koeffitsientlari sonini kamaytirish, temir yo'l orqali tashishni har tomonidan mablag' bilan ta'minlash turlarini kamaytirish;
- o'z lokomotiv va vagonlariga ega bo'lgan temir yo'l transportida yuk tashishga mo'ljallangan xususiy kompaniyalar tashkil etilishi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali temir yo'lda yuk tashish sohasida raqobat muhitini shakllantirish;

4 Olib borilgan taddiqotlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



- transport va logistika tizimining tezkorligi va ishonchliligini oshirish, 2030-ilgacha elektr energiyasi bilan ta'minlangan temir yo'llar ulushini 55 foizga yetkazish. Buning uchun har yili o'ttacha 168 km temir yo'lni elektr energiya bilan ta'minlash zarur, sarmoyalar hajmi esa 5,34 mlrd. dollarni tashkil etishi kerak. 2030-yilgacha lokomotiv va vagonlarni yangilash uchun 1,2 mlrd. dollarlik sarmoya sarflash zarur;
- konteynerlarda tashilgan yuklarning transportga sarflanadigan to'lovlarini 10 foizga kamaytirish uchun konteynerda tashishni 25-30 foizga oshirish zarur;
- transport tizimi samaradorligini oshirish uchun mintaqalarda multimodal transport-logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish;
- yuk tashish, intermodal va multimodal yuk tashishlarning normativ hamda huquqiy bazasini, texnik va texnologik reglamentini hamda standartlarini, logistika markazlarini, transport-ekspeditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga mos holda uyg'unlashtirish;
- multimodal tashishlar samarali bo'lishini ta'minlash uchun integratsiyalashgan axborot tizimini tashkil etish;
- bojxona logistika markazlarining milliy tarmog'ini shakllantirish, ularda transport-logistika operatsiyalari kamida 3PL darajada bo'lishini ta'minlash lozim.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida transport tizimi samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va moddiy resurslar tejamini ta'minlash, trasport ximzat ko'rsatishning jadallahushi hamda xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishiga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil.
4. Venables, A. J. (2007). Shahar transportini takomillashtirishni baholash: Aglomeratsiya va ba'zi taksonlarning bir xil mavjudligida tarkib-foyda tahlili. Transport iqtisodiyoti va siyosati jurnalı, 41: 173-188 p.
5. Коврижных И.В. Анализ и оценки эффективности управления в организации / И.В. Коврижных. – Барнул: АФ СибАГС, 2016. – 86 с.
6. Zohidov A.A. Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref., Toshkent 2018.
7. Frederik Starr S., Filat Yildiz, Martina Reiser va boshqalar. Yangi Ipak yo'llari: Katta Markaziy Osiyoda transport va savdo. Monografiya Markaziy Osijo fan instituti va Silk Road Studios dasturi, Vashington, D.C.: Jons Xopkins universiteti-CAIS, 2007. – 514 b.
8. Экономика транспорта: Учебное пособие / Терешина Н.П., Потапова Е.В., Терёшина Н.В., Епишкин И.А. – М.: РУТ (МИИТ), 2018. – 142 с.
9. Гольц Г.А. Транспорт и макроэкономика России за три века. Материалы X международной (тринадцатой Екатеринбургской) научно-практической конференции 14-15 июня 2004 года.
10. Fayzullayev J. (2020). Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems. Arxiv nauchnykh issledovanii, 1(3). <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3892>.
11. Fayzullayev J.S. Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2, Dec -2019 62-65. <https://saarj.com/wp-content/uploads/SAJMMR-JULY-2020-FULL-JOURNAL.pdf>
12. Fayzullayev J.S. Theoretical Aspects of the Transport Logistics System Management // Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Special Issue–2, Sep -2019. [http://ajtmr.com/papers/Splss2/Splss2\\_8.pdf](http://ajtmr.com/papers/Splss2/Splss2_8.pdf).
13. Fayzullayev J.S. Transport-logistika tizimi: muammo va yechimlar // Proceedings of Global Technovation 2 nd International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted from London, U.K. December 28th, 2020. <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/424>
14. Fayzullayev J.S. Problems And Status Of Efficiency Of The Transport And Logistics System In The Railway Network , Archive of Conferences: Vol. 13 No. 1 (2021): GTIMSC-2021, <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/573>.
15. Fayzullayev, J.S. (2021) "Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system," Economics and Innovative Technologies: Vol. 2021: No. 1, Article 1. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1>.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

